

O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar oyi uchun

- I. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni
- II. O'zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


I. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-fevral holatiga ko'ra, respublikada 60,6 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida korxonalarning katta qismi quyidagilarga:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – 12,1 mingta (20,1 %);
- boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 8,4 mingta (13,8 %);
- kiyim ishlab chiqarish – 6,1 mingta (10,0 %);
- tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – 4,9 mingta (8,1 %);
- mebel ishlab chiqarish – 4,2 mingta (6,9 %);
- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 3,7 mingta (6,2 %);
- rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – 2,9 mingta (4,7 %) to'g'ri keldi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalari ulushi

2026-yil 1-fevral holatiga ko'ra



II. O'zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

2026-yilning yanvar oyida respublika korxonalari tomonidan 85,1 trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 7,8 foizga oshgan.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
O'zbekiston Respublikasi	85 057,6	107,8
<i>hududlar:</i>		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 111,7	106,0
Andijon viloyati	4 424,2	108,2
Buxoro viloyati	3 190,4	107,8
Jizzax viloyati	2 477,4	108,1
Qashqadaryo viloyati	2 791,5	105,1
Navoiy viloyati	27 126,6	108,2
Namangan viloyati	2 784,3	108,6
Samarqand viloyati	3 784,9	108,4
Surxondaryo viloyati	1 059,8	108,9
Sirdaryo viloyati ¹⁾	2 411,7	108,4
Toshkent viloyati	12 179,9	106,8
Farg'ona viloyati	3 512,1	107,6
Xorazm viloyati	1 941,3	107,5
Toshkent shahri	13 853,1	107,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(yillik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(yillik\)](#)


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tahlil qilinganda Navoiy viloyatida (24,6 mln so'm), Toshkent shahrida (4,4 mln so'm), Toshkent viloyatida (3,9 mln so'm), Sirdaryo viloyatida (2,6 mln so'm) respublika o'rtacha ko'rsatkichi (2,2 mln so'm)dan yuqori natijalar qayd etilgan.

Shuningdek, respublikada aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, Sirdaryo viloyatida 106,6 %, Namangan viloyatida 106,5 %, Surxondaryo va Navoiy viloyatida 106,4 %, Samarqand viloyatida 106,3 %ga ega bo'lib, respublika ko'rsatkichidan yuqori natija qayd etilmoqda.

¹⁾ viloyatda yangi ishga tushirilgan davlat xususiy sherikchilik asosida faoliyat yuritayotgan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar hajmi qamrovini takomillashtirishni hisobga olgan holda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yanvar oyida



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(yillik\)](#)

[Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(oylik\)](#)

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar oyida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 70,7 trln so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 83,1 foizni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 6,5 trln so'm (7,6 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 7,4 trln so'm (8,7 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 0,5 trln so'm (0,6 %)ni tashkil etdi.

Seksiyalar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi 2026-yilning yanvar oyida



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibi 4 ta B, C, D, E seksiyadan iborat:

B – tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;

C – ishlab chiqarish sanoati;

D – elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash;

E – suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishdan tashkil topgan.

III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yil yanvar oyida respublikada quyidagi mahsulotlar ishlab chiqarildi: tabiiy gaz – 3,7 mlrd m³, neft – 54,1 ming t, ko'mir – 0,4 mln t, avtomobil benzini - 110,6 ming t, dizel yoqilg'isi – 81,0 ming t, portlandsement – 1,0 mln t, ip kalava – 49,6 ming t, yumshoq bug'doy va spelta uni – 92,0 ming t.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar ¹⁾	2025-yil yanvar ¹⁾	2026-yil yanvar
Avtomobil dvigatellari, dona	13 915	7 795	10 222
Avtomobil benzini, ming t	124,6	99,0	110,6
Dizel yoqilg'isi, ming t	50,2	33,2	81,0
Ko'mir, mln t	0,4	0,4	0,4
Neft, ming t	60,4	55,1	54,1
Tabiiy gaz, mlrd m ³	4,0	4,0	3,7
Gaz kondensati, ming t	111,7	99,7	83,4
Portlandsement, mln t	0,9	0,9	1,0

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,2 %, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi – 11,7 %, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar, elektr uskunalar, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunalarini ishlab chiqarish va mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatishning ulushi – 14,5 % hamda kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,4 foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,1 foizni, o'rta-yuqori texnologiyali – 16,7 %, o'rta-quyi texnologiyali – 50,9 %, quyi texnologiyali - 31,2 foizni tashkil etgan.



O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan avtomobillar soni yanvar oyida, donada

Sanoat mahsulotlari	2025-yil	2026-yil
Yuk avtomobillari	180	233
Yengil avtomobillar	15 613	22 099
<i>shundan:</i>		
<i>Maxsus yengil avtomobillar</i>	645	2 062
“Cobalt”	5 660	6 993
“Damas”	2 765	3 628
“Gentra”	-	-
“Tracker”	1 334	1 900
“Onix”	1 462	1 974
“KIA”	1 978	2 298
“Chery”	594	757
“Haval”	373	1 135
“BYD”	802	1 352
“Tank 500”	-	-
“LADA”	-	-

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasi

2026-yilning yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiyasi ishlab chiqarish 108,0 foizni, yirik korxonalar tomonidan issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 89,7 foizni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar ¹⁾	2025-yil yanvar	2026-yil yanvar
Jami ishlab chiqarilgan elektr energiyasi, mln kVt soat	7 576,5	7 573,2	8 182,1
<i>shundan:</i>			
yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)	7 061,2	6 003,3	5 880,8
kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlari asosida)	515,3	1 569,9	2 301,3
Issiqlik energiyasi, ming Gkal (yirik korxonalar)	2 874,9	2 754,5	2 471,7
Ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, mln m ³ (yirik korxonalar)	13,8	15,3	-

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasi (yirik korxonalar tomonidan)

O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilarida 1,2 foizga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 32,2 foizga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar ¹⁾	2025-yil yanvar ¹⁾	2026-yil yanvar
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	48,2	52,1	68,9
Axlat o'ralarini, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	38,0	35,8	33,2
To'qimachilik chiqindilari, t	1 450,0	1 876,0	1 899,0

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan



IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (O'zDSt 2014:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi.

Foydali havolalar

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-giyatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfqheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
O. Izmailov
+998 71 203-80-00 (1205)

Manzil:

